

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС  
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО  
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



**2021 йил 5 сон**



ёмонлик, умидсизлик, ёлгон гапириш, ялқовлик, очкўзлик каби ярамас иллатлар кораланади.

Мақоллардаги такрор сўзлар оҳандорликни янада оширади. Мақолларда сифатлаш, ўхшатиш каби бадиий тасвир воситалари ва омоним, антоним сўزلардан фойдаланиш уларнинг бадиийлигини янада оширади, ифодаланган фикрнинг тингловчига тез етиб боришини таъминлайди. Мақол ва маталлар донишмандлик рамзи бўлиб келган. Улар ўқувчи ва тингловчиларни фикрини чуқур, ихчам, аниқ ва образли қилиб ифодалашга ўргатади, кишиларни, айниқса, ёшларнинг миллий, инсоний хислатларни эгаллашида муҳим восита вазифасини ўтаб келган ва ўтаб келади.

#### **Адабиётлар**

1. Абдурахимов И. Ўзбекча – русча афоризмлар луғати. – Т.: Ўқитувчи, 1986. – 50 б.
2. Бенович Л.О. Многочисленность идиом «Ин.яз.в шк» журналы, 1952, №5.
3. Бегматов Э. Ўзбек тилининг лексик қатламлари. – Т., 1985.
4. Бабаев М.Т., Бабаева В.Т. "Чет тилларини ўрганишда таржиманинг аҳамияти ва роли" - Бухоро "Durdona" nashriyoti-2020 й.
5. 6. Ruziyeva N. (2020). FACE CONCEPT IN THE CATEGORY OF POLITENESS. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 1(4), 15-20.
7. D.Sh.Islomov. (2021). The Definition of The Concepts of "Phoneme" and "Phonostylistics". Middle European Scientific Bulletin, 9.
8. Д.Ш. Исламов. "Поэтические формы как культуроведческий компонент при обучении иностранному языку". Статьи в Академии Наука. Мысль: электронный периодический журнал, 2015.

#### **TARJIMADA LINGVOKULTUREMALARNING BERILISHI VA ULARNING STRUKTURAL KOMPONENTLARI (NEMIS VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)**

Irgasheva Feruza Baxtiyorovna

Buxoro davlat universiteti

Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrasida katta o'qituvchisi

e-mail: [f.b.irgasheva@buxdu.uz](mailto:f.b.irgasheva@buxdu.uz)

*Аннотация.* Ushbu maqola lingvokulturemalarning tarjimada berilish tamoyillari, ularning lingvo-etnokulturologik xususiyatiga ko'ra madaniyat va shaxslararo o'zaro aloqasi, struktural komponentlari doirasida qiyoslanishi yoritilgan.

*Калит so'zlar:* lingvokulturema, til, madaniyat, konsept, ekstralingvistika, antroposentrizm, asimmetriya.

#### **ЛИНГВОКУЛЬТУРЕМЫ В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕВОДА И ИХ СТРУКТУРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ (НА ПРИМЕРЕ НЕМЕЦКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)**

Иргашева Феруза Бахтиёровна

Бухарский государственный университет

Старший преподаватель кафедры переводоведения и лингводидактики

email: [f.b.irgasheva@buxdu.uz](mailto:f.b.irgasheva@buxdu.uz)





**Аннотация.** В данной статье описаны особенности перевода лингвокультурем, их культурная и личностная взаимосвязь с точки зрения лингво-культурологических особенностей, их сравнение в рамках структурных компонентов.

**Ключевые слова:** лингвокультурема, язык, культура, концепт, экстралингвистика, антропоцентризм, асимметрия.

## TRANSLATION OF LINGUOCULTUREMAS AND THEIR STRUCTURAL COMPONENTS (ON THE EXAMPLE OF GERMAN AND UZBEK LANGUAGES)

Irgasheva Feruza

The Department of Translation Studies and Language Education, senior teacher at Bukhara State University

email: [f.b.irgasheva@buxdu.uz](mailto:f.b.irgasheva@buxdu.uz)

**Abstract.** The article describes the features of translation of linguoculturemes, their cultural and interpersonal interaction from the point of view of linguo-ethnocultural characteristics, their comparison within the framework of structural components.

**Key words:** linguocultureme, language, culture, concept, extralinguistic, anthropocentrism, asymmetry.

Har qanday muloqot maqsadi – ma’lumot yetkazish va muloqot qiluvchilar orasida o’zaro tushunishga erishish. Kommunikatsiyaning har ikkala tarafdorlariga ham ma’lum bo’lgan fakt haqida gapirilsa, unda hech qanday muammo yuzaga kelmaydi. Ammo turli millat va turli madaniyat mavjud ekanki, albatta ular o’rtasida o’xshash va farqli jihatlar mavjuddir. Til madaniyat shakllanishi va rivojiga ta’sir ko’rsatib, o’z navbatida “shaxs sifatida shakllanadi”. Til, madaniyat va shaxs muammolarini bir nuqtaga yig’ish kerak, chunki aynan madaniyatdan insonlarning ma’naviy muloqoti va xalqlarning bir-birini tushunishi hamda hamkorligi boshlanadi [5, 13]. Shuni ta’kidlash joizki, zamonaviy lingvistika antroposentrik yo’nalishga ega. Bu esa inson va til hamda madaniyat orasidagi munosabat ilmiy tadqiqotlar markazida ekanligini anglatadi [4, 65]. Tarjima jarayonida ham mutarjim asliyatdagi gapni, uning elementlari mazmuniy qiymatini saqlab qolish maqsadida lisoniy belgilarning nafaqat shakli, lingvistik belgilari, balki ularning diskursda bir-biriga ta’siri, bir-birini taqozo qilishi natijasida asliyat va tarjima o’rtasida shakliy yoki struktural asimmetriya yuzaga kelishi mumkinligini ha e’tiborga olishi lozim [5, 65].

Til va madaniyatning o’zaro aloqasi bir qancha yo’nalishlarda o’rganiladi, shulardan biri lingvokulturologiyadir. Lingvokulturologiya lingvo-etnokulturologik xususiyatiga ko’ra til, madaniyat va shaxsning o’zaro aloqasini ham tadqiq etadi:

- madaniyatning antroposentrik tushunchasi;
- inson lisoniy shaxs sifatida;
- til madaniy meroslarni mujassamlashtirgan tizim sifatida;
- til va madaniyatning o’zaro ta’siri;
- madaniyat tilning eng oily darajasi sifatida;
- dunyoning o’ziga xos milliy lisoniy tasviri sifatida;
- nutq shakllanishi va qabul qilinishining modellanishi;
- matnning madaniyatga kirib borishi va uning interpretatsiyasi.



Lingvokulturemalar til va madaniyat belgilari asosida o'rganiladi. Til va madaniyatni bir qolip doirasida o'rganish, ya'ni ham lisoniy, ham madaniy nazariyani birlashtirishda lingvokulturologiya yo'nalishi til va madaniy mazmun muvofiqligini aks ettiruvchi lingvokulturema tushunchasi kiritilgan. Lingvokulturemalar dunyoning etnik kartinasini hosil qiladi, ularning qiyoslanishi esa tillar va madaniyatlarda o'xshashlik va farqli jihatlarni aniqlaydi.

V.V.Vorobyovning ta'rifiga ko'ra, lingvokulturema o'zida lingvistik va ekstralingvistik dialektik birliklarni aks ettirib, "tegishli lisoniy tasavvur" sifatida hamda u bilan bog'liq "nolisoniy madaniy muhit" tushunchasini ham bevosita bog'liq holda bo'ladi. Lingvokulturemalar strukturasi madaniy-konseptual komponentlar nolisoniy tarkib sifatida mavjuddir. O'z ifoda tilida lingvokulturemalar turli xil – ular so'z, so'z birikmasi, matn paragrafi, she'r va hattoki butun bir matn orqali ifodalanishi mumkin.

Har qanday lingvokulturema formal va mazmun beruvchi qismga ega. Lingvokulturemalar struktural komponentlar doirasida qiyoslanishi va shunga ko'ra ularning o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash mumkin:

- shakl
- mazmun
- realiya [1, 81]

Madaniyatga xos so'zlar o'zaro nisbati va mutanosibligini nemis va o'zbek tillari misolida quyidagi hollarini ko'rishimiz mumkin:

- o'zbek tiliga xos, nemis xalqi madaniyatida mavjud bo'lmagan realiyalar;
- o'zbek madaniyatida mavjud bo'lmagan, ammo nemis madaniyatiga xos;
- har ikkala til madaniyatida ham realiya sifatida nomuvofiq. Bunda uch turdagi nomuvofiqlikni ko'rish mumkin.

Nomuvofiqlikning birinchi ko'rinishida har ikkala tilda mavjud, ammo ularning funksiyasi ikkala til madaniyatiga bir xilda mos kelmaydi. Masalan, nemis tilidagi *Akademiker* so'zi DUDEN izohli lug'atida *jemand, der eine Universitäts- oder Hochschulausbildung hat*, ya'ni oliy bilim yurtida tahsil olgan shaxs.

O'zbek tilining izohli lug'atida akademik so'ziga *Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi; biror akademianing a'zolisiga saylangan olim, adib, rassom, haykaltarosh va sh.k.ning unvoni* ta'rifi keltirilgan. Tushuncha har ikkala tilda ham mavjud, ammo ular funksional jihatdan farqlanyapti.

Nomuvofiqlikning ikkinchi ko'rinishida shakl turlicha, ammo bir xil ma'noni bildiruvchi lingvokulturemalar. Masalan:

... – Haken dort, Zischlaut da, schräge Flügel, *weibliche Augen*.

... - ilmoqli belgilar, shipildoq undosh tovush belgilari, qiyshiq qanotlar, *ohu ko'zlar*.

Bir xil mazmunga ega lingvokulturemalar turli tillarda qabul qilingan ichki shaklga ega bo'lgan turli so'zlar yordamida atalyapti. *weiblich* – ayollarga xos ma'nosiga ega nemis tili ichki xususiyatidan kelib chiqib ko'z so'ziga sifat berilgan, o'zbek tilida esa, shu tilning ichki xususiyati inobatga olinib *ohu ko'zlar* sifatida shakllantirilgan.

Quyida keltirilgan misolda shaklning boshqaligi, ammo mazmun har ikkala tilde ham bir xilligini ko'rishimiz mumkin:

DUDEN izohli lug'atida *Die Mütze* – in verschiedenen Formen gefertigte, überwiegend aus weichem Material bestehende Kopfbedeckung mit oder ohne Schirm.





O'zbek tilining izohli lug'atida *qalpoq* – 1. Yupqa namatdan qilingan bosh kiyim. 2. Har qanday to'qima yoki matodan qilingan bosh kiyim.

“Til va madaniyat” muammosi interpretatsiyasi mnemo nazariyasi orqali lingvokulturologik ma'lumotlarni saqlash va yetkazib berish jarayonini avlod-dan-avlodga (tarixiy aspekt), bir ijtimoiy jamoadan ikkinchi ijtimoiy jamoaga, jamiyatdan individga va aksincha (individual-psixologik aspekt), bir millatdan boshqasiga (millatlararo aspekt) ob'yektiv tadqiq qilish imkonini beradi.

Sliksin fikriga ko'ra “lingvokulturologik konsept” bu – til, anglash va madaniyatni kompleks o'rganishga yo'naltirilgan shartli mental birlikdir. Uning quyidagi asosiy xususiyatlari mavjud:

- a) mavjudlikning kompleksligi: tushuncha ongda mavjud, madaniyat orqali aniqlanadi va til yordamida nutqda shakllanadi.
- b) mental tabiat: lingvokulturologik konsept o'zining mental xarakteriga ko'ra lingvokulturologiyada qo'llanadigan boshqa birliklardan farq qiladi. Konsepsiya ong ostida shakllangandan keyin uning har bir tadqiqoti kognitiv bo'ladi.
- c) ahamiyatlilik: ahamiyatlilik doimo konsepsiya markazida bo'ladi, chunki bu konsepsiya qadriyatlilik prinsipiga asoslangan madaniyatni ifodalashda qo'llanadi. Turli doiralarga oid boshqa mental birliklar lingvokulturologik konsepsiyaga bog'liq bo'ladi (masalan, kognitiv konsept, freym, script, geshtalt, stereotip).
- d) shartlilik va mavhumlik: lingvokulturologik konsepsiya shartli birlik sifatida ong osti va uning strukturasi tadqiqot ob'yekti funksiyasiga ega. Konsept ong osti “kuchli” nuqtasida birlashib, undan assotsiativ vektorlar tarqaladi. Til vakillari uchun end dolzarb assosiatsiyalarni konsept yadrosi tashkil etadi. Markaziy nuqta konsepsiya nomi sifatida xizmat qiladi.
- e) o'zgaruvchanlik: bir til jamoasi hayotida dolzarblilik farqlanadi. Shunga muvofiq konsepsiya o'z ahamiyatini manfiydan musbatga yoki musbatdan manfiyga o'zgartiradi.
- f) til vakili ongi orqali chegaralanish: lingvokulturologik konsepsiya individual va jamoaviy ongda mavjud bo'lib, analogik, individual, jamoaviy, milliy va universal konseptlar bo'yicha tartiblanadi. Individual konseptlar jamoaviy konseptlarga qaraganda boyroq va rang-barang, chunki jamoaviy tajribalar individual tajribalarga nisbatan mahsuldor.
- g) uch komponentli struktura: bu tushuncha obrazli (obrazli-metaforik), konseptual (joriy) va belgilangan komponentlarni qamrab oladi.
- h) ko'p murojaat qilish: har bir til tushunchasi (so'z, frazeologizm, noverbal belgi uchun) uchun lingvistik havolalar mavjud.
- i) ko'p vaznli: sintetizm oqibatiga ko'ra konsepsiya ko'p vaznli (freym, ko'rinish).
- j) metodologik ochiqlik, ko'p klassifikatsiyalilik (tematika bo'yicha, ommaviy axborot vositalari, diskurs turlari va boshqalar) [2, 43].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda shuni aytishimiz mumkinki, lingvokulturemalar birlik sifatida mavjud bo'lib, ularning iyerarxik munosabatlari esa paradigmatic va sintagmatic bosqichda ularning strukturasi elementlarning o'zaro aloqasi sifatida tasvirlaydi. Aslida tarjimon bir belgili tizim (asliyat tili) qiymatini boshqa belgili tizim (tarjima tili) qiymatiga o'girish, boshqacha aytganda, u o'z faoliyatida nafaqat asliyat matni unsurlarining lug'aviy ma'nolarini berish, balki asliyat va tarjima tili lisoniy birliklari orasidagi qiymatni izlab topish va o'rinli qo'llash bilan ham shug'ullanadi.



Tadqiqot natijalari asliyat tili va tarjima tili orasidagi lisoniy qiymatni topib, tarjimada qo'llash eng samarali usullardan biri ekanligini ko'rsatdi. Asimetriya va qiymat qonunlarini bilish tarjima jarayonini osonlashtiradi va uning sifatini asliyatga yaqinlashtiradi. Bu ayni paytda asliyat tili tizimining tarjima tili tizimiga o'tkazish ehtimoli bo'lgan «bosimi»ga uzil-kesil barham beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Воробьев В.В. Лингвокультурология (Теория и методы). – М., 1997.
2. Гончар Н.Г. Асимметрия в переводе художественного текста: этнолингвокультурный аспект: Дис. ... канд. филол. наук. – Тюмень, 2009. – 254 с.
3. Слыскин, Г.Г. Лингвокультурный концепт как системное образование. Вестник Воронежского университета. – Воронеж, 2009. С. 29-35.
4. Irgasheva Feruza Bakhtiyorovna. (2021). INTEGRATION OF LANGUAGE AND CULTURE INTO THE TRANSLATION PROCESS. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE, 2(1), 32-34.
5. Kasimova, N.F. (2017). Communicative functions of the interrogative sentences in English. Priority Directions of Science Development, 3, 59-62.
6. Қосимова Н.Ф. Лисоний белги асимметрияси ва унинг сўроқ гап таржимасида воқеланиши. Ф.ф.ф.д. дисс... . – Тошкент, 2018. 149 б.

#### **XORIJIY TILLAR TA'LIMIDA TALABALARDA MUSTAQIL O'RGANISH KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI**

Olimova Dilfuza Zokirovna

Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrasida o'qituvchisi

Buxoro davlat universiteti

email: [d.z.olimova@buxdu.uz](mailto:d.z.olimova@buxdu.uz)

*Annotatsiya: Maqolada chet tillarni o'qitishda talabalar avtonomiyasini rivojlantirish muammosi yoritiladi, chet tillarni o'rganish jarayonida talabalar o'zlashtiradigan metakognitiv strategiyalar ko'rib chiqiladi.*

*Tayanch so'zlar: avtonomiya, metakognitiv strategiyalar, tanqidiy fikrlash, ko'p o'lchamli qobiliyat, o'z-o'zini o'qitish, o'z-o'zini boshqarish, o'z-o'zini baholash.*

#### **ВАЖНОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ АВТОНОМНОГО ОБУЧЕНИЯ У СТУДЕНТОВ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА**

Олимова Дилфуза Закировна

Бухарский Государственный Университет

Преподаватель кафедры переводоведения и лингводидактики

email: [d.z.olimova@buxdu.uz](mailto:d.z.olimova@buxdu.uz)

*Аннотация: В статье обсуждается проблема развития автономии студентов при обучении иностранным языкам, рассматриваются метакогнитивные стратегии, которым обучаются студенты в процессе изучения иностранных языков.*